



BIOMORPHOLOGY, SYSTEMATICS OF URTICA DIOICA L. SPECIES, AND THE LEVEL OF ALLERGIC INFLUENCE

Ergasheva Gulmira Ostonovna
ADU Doktoranti

Ismonova Gulmira Shuxratjon qizi
ADU Doktoranti

Naraliyeva Nasibaxon Mamanovna
B.f.d., Professor

Ibroximova Gulbaxor Abdulpattaevna
B.f.f.d., Dotsent
Andijon Davlat Universiteti

Abstract:

In this article, the morpho-biological structure, systematics, geographical distribution, ecology, medicinal properties and allergic effect levels of plant pollen of *Urtica dioica* L species were analyzed based on various literature.

Keywords: species, genus, family, tribe, class, allergic level, pollen, triporate, psilate, atlas.

Urtica dioica L – gazanda, achitqi o't yoki chayon o't.

Urticaceae oilasiga mansub, bo'yi 60-120 (150) sm keladigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyasi tik o'sadi, tumtoq to'rt qirrali, shoxlanmagan yoki qarama-qarshi shoxlangan. Barglari keng tuxumsimon, o'tkir uchli, sertuk, yirik arrasimon qirrali bo'lib, poya va shoxlarida bandi yordamida qarama-qarshi o'rnashgan, bir jinsli, mayda, ko'rimsiz, yashil rangli, to'rt bo'lakli gullari barg qo'ltig'idan chiqqan boshqqa to'plangan. (Hamidov va boshq.,1987). CHangchi va urug'chi gullari to'rt bargli gulqo'rg'onga ega. Urug'chi gulqo'rg'onlarining ikkitasi o'simlik gullaganda kattalashadi. CHangchilari 4 ta, urug'chisi 1 ta. Mevasi-yong'oqcha. May-sentyabr oylarida gullaydi va meva yetiladi. (Flora Uzbekistana., 1941-1963).

Geografik tarqalishi: *Urtica dioica* L Ukraina, Belorussiya va Rassiyaning Yevropa qismi, Sibir, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qozog'iston, qisman Uzoq SHarqda tarqalgan.

Ekologiyasi: O'sish joylariga ko'ra asosan suvga yaqin yerlarda, salqin joylarda, jarliklarda, shar-sharalar atrofida, yo'l yoqalarida, butazorlarda, axoli yashaydigan yerlarga yaqin joylarda, uylar atrofida va tog' etaklarida o'sadi.



Urtica dioica L - sistematikasi

Sinf: Magnoliopsida

Qabila: Rosales

Oila: Urticaceae

Turkum: Urtica L

Tur: Urtica dioica L.(1753)

Xozirgi kunda dunyo axolisining 20% allergiyadan aziyat chekadi. O'simlik gulchaglari allergik sezgirlik va allergik kasalliklarga olib keladigan allergenlardan biridir. Sevil Pehlivan tomonidan Turkiyaning allergik polenlari atlasini ishlab chiqilgan bo'lib, unda asosan allergik ta'sir darajalari bayon qilingan.

Allergik ta'sir darajasi: Urtica dioica L allergik ta'sir darajasi judayam yuqori hisoblanib, 3 (***) ga to'g'ri keladi. (Pehlivan 1995; Grant Smith 1990; Stefanic et al., 2007).

Urtica L. Polenga sezgir va yuqori darajada allergik ta'sirga ega. (D'Amato et al., 1988; Middleton et al., 1988; Aytuğ et al., 1995). Urticaceae oilasiga mansub gulchanglar astma va burun oqishi kabi kasalliklarga olib kelishi mumkinligi aytilgan. (Serafini 1974; Bousquet va ark. 1984, Cvitanovic va ark. 1986; Aytuğ va Peremeci 1987).



Urtica dioica L. ning umumiy ko'rinishi



Gulchangining sinflanishi: triporate. Tashqi tuzilishi: psilate



Dorivorlik xususiyati: Gazanda o'simligining mevasini Abu Ali ibn Sino nafas qisishi kasalligini davolashda uchun, bargini qon oqishini to'xtatuvchi va surgu vosita sifatida qo'lagan. O'simlik bargidan tayyorlangan damlama qaynatma va barg kukuni xalq tabobatida kurak og'rig'i, nafas qisishi, diabet, istima va bod kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. Bargining tarkibida 100-600 mg vitamin S, K, V2, 14-30 md % karotinoidlar, organik kislotalar, 2-5% xlorofil, mikroelementlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor (M.A. Jo'rayeva 2019). Bulardan tashqari, bargidan tayyorlangan damlama va poroshogi nafas yo'llari kasalligida balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi (siydik yo'llari va buyrak-tosh kasalliklarida) hamda ichakda qon oqishini to'xtatuvchi dori sifatida qo'llaniladi.

Soch to'kilishini to'xtatish uchun gazanda bargi damlamasi bilan bosh yuviladi. Bargidan ajratib olingan xlorofildan farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan zararsiz bo'yoq tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pehlivan, S. (1995). Turkiye'nin Alerjen Polenleri Atlasi.
2. A.Hamidov, M.Nabiev, T.Odilov., (1987). O'zbekiston o'simliklari aniqlagichi
3. M.A. Jo'rayeva., (2019). Dorivor o'simliklar atlası.
4. Флора Узбекистана. (1941-1963). - В 6 Т. – Ташкент: изд. АН УзССР.
5. G.Ergasheva, N.Naraliyeva, T.Madumarov, A.Güvensen., (2023). Andican şehrinde rüzgarla tozlaşan bazı otsu bitki polenlerinin allerjik etki düzeyleri.
6. <https://www.gbif.org/>